

KONFERENSIYALAR UZ

— ANJUMANLAR PLATFORMASI

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

**II RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

IYUN, 2025-YIL



O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

**II RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, iyun

TOSHKENT-2025

ISBN 978-9910-09-204-6

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI. II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 138 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz/uzbekistan-2030>

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 23-iyun

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur nashrda “O'zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta'lim istiqbollari” nomli II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to'plami jamlangan. Unda O'zbekistonning turli oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo'nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta'lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To'plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarni birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta'lim, O'zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta'lim.

ISBN 978-9910-09-204-6

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI

Kamolova Dilnavoz, Shomurodova Shahzoda

PAST TEMPERATURALAR HOSIL QILISH VA GAZLARNI SUYULTIRISH METODLARI5-10

TEXNIKA FANLARI

Mirabdullayev Fayzullo, Tursunov Otabek

5G TEXNOLOGIYASIDAGI XAVFSIZLIK MUAMMOLARINING TAHLILI 11-18

Tursunov Otabek, Shakarov Muhiddin

ZAMONAVIY SIMMETRIK SHIFRLASH ALGORITMLARINI CHIZIQLI KRIPTOTHLILI 19-27

TARIX FANLARI

Ergasheva Mohichexra

ROSSIYA IMPERIYASI SIYOSATINING ZARAFSHON VOHASIDAGI ETNIK MUVOZANATGA

TA'SIRI: TARIXIY MANBALAR ASOSIDA TAHLIL 28-31

Oralov Dostonbek

BIRINCHI JAHON URUSHINING TURKISTON O'LKASIDAGI IJTIMOY-SIYOSIY

JARAYONLARGA TA'SIRI 32-35

IQTISODIYOT FANLARI

Арипова Анна

ЦИФРОВИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ

ЭФФЕКТИВНОСТИ СДЕЛОК СЛИЯНИЯ И ПОГЛОЩЕНИЯ 36-40

Шарипов Жамшид, Нуридинов Рамзидин

СУНЬИЙ ИНТЕЛЛЕКТ: ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШ ДРАЙВЕРИ 41-48

Авдошкина Олеся

ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОДДЕРЖКА МАЛОГО БИЗНЕСА ЧЕРЕЗ КРЕДИТНЫЕ

ИНСТРУМЕНТЫ: НА ПРИМЕРЕ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ 49-56

Azamatov Otabek

PROBLEMS IN IMPROVING THE COMPETITIVENESS OF SMALL BUSINESSES AND PROPOSED

SOLUTIONS 57-61

Eraliyev Sardorjon

AGROBIZNESDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY

USULLARI 62-64

Isomuxamedov Akbarjon

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA XARAJATLAR VA DAROMADLAR HISOBINI TASHKIL ETISH

VA TAHLIL QILISH 65-67

FILOLOGIYA FANLARI

Mamatova Feruza

ANTROPOFENOMENLAR: LINGVOKOGNITIV, LINGVOMENTAL, DINAMIK VA STATIK

TURLARI 68-73

Yuldasheva Xurshida

O'ZBEK ADABIY MEROSINING RAQAMLI PLATFORMALARDA O'RGANILISHI: IBN SINO

MISOLIDA 74-76

<i>Abduvaliyeva Kamola</i> “SHAJARAYI TURK” ASARIDAGI ETNONIMLARNING GRAMMATIK TUZILISHI VA YASALISHI	77-82
---	-------

GEOGRAFIYA FANLARI

<i>Abdirayimova Ozoda</i> SURXONDAYO VILOYATIDA BUDDIZM OBIDALARI ASOSIDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI	83-86
--	-------

YURIDIK FANLAR

<i>Alimjonov Fayozbek</i> LITSENZIYALASH TUSHUNCHASI, TIZIMLARI VA ULARNING TARIXIY RIVOJLANISHI	87-91
<i>Muradullayeva Sevinch</i> SOLIQ NAZORATINI AMALGA OSHIRISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI	92-96
<i>Abdullaeva Sabokhat</i> ISSUES OF IMPROVING INTERNATIONAL LEGAL MECHANISMS TO COMBAT TRANSNATIONAL CRIMES TARGETING CRYPTOASSETS	97-105

PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Haqberdiyev Baxtiyor, Ismag'ilova Madinabonu, Imomnazarova Durdona</i> TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI MUTAXASSISLARINING GRAFIK VA IJODIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH	106-108
<i>Разикова Дилфуза</i> ЭФФЕКТИВНОСТЬ ДИАГНОСТИЧЕСКОГО ОЦЕНИВАНИЯ ПРИ ОБУЧЕНИИ СТУДЕНТОВ НЕФТЕГАЗОВОГО ПРОФИЛЯ	109-112
<i>Salimova Bakhora</i> TEACHING METHODOLOGY: PRINCIPLES, APPROACHES, AND INNOVATIONS	113-117
<i>Bakhronova Mahliyo</i> “DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCE IN TEACHING ENGLISH”	118-123
<i>Bekmuradova Gulnoza</i> TALABALARNI ILMIY-TADQIQOT ISHLARGA JALB ETISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK VA ILMIY-METODIK ASOSLARI	124-129
<i>Rahimov Javohir</i> DUAL TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA 4K VIDEO STUDIYASIDAN FOYDALANISH VA VIDEODARSLARNI YOZISHNING DASTURIY METODIK TA'MINOTI	130-133
<i>Юсупова Сабохат</i> ЗНАЧЕНИЕ РАЗВИТИЯ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ В ПРОГРЕССЕ ОБЩЕСТВА	134-137

AGROBIZNESDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI MOLİYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Eraliyev Sardorjon Rustamjon o'g'li

Agrobiznes va investitsion faoliyat ta'lim yo'nalishi

3-bosqich talabasi, Andijon qishloq xo'jaligi

va agrotekhnologiyalar instituti

E-mail: eraliyevsardorjon@gmail.com

Tel: +998 91 693 77 46

Andijon, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada agrobiznes sohasida investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning zamonaviy usullari tahlil qilinadi. An'anaviy moliyalashtirish manbalari bilan bir qatorda, zamonaviy vositalar — ventur kapital, agrar obligatsiyalar, lizing va klaster tizimlari asosida investitsiyalarni jalb qilish usullari yoritiladi. Shuningdek, O'zbekiston agrar sektorida investitsion faollikni oshirish uchun xorijiy tajribalarni joriy etish zarurati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: lizing, moliyalashtirish, investitsiya, innovatsion usullar, ventur kapital, agrobiznes, klaster.

MODERN METHODS OF FINANCING INVESTMENT ACTIVITIES IN AGRIBUSINESS

Eraliyev Sardorjon Rustamjon ogli

3rd-year student of the Agrobusiness

and Investment Activity educational program,

Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnologies

Abstract. This article analyzes modern methods of financing investment activities in the agribusiness sector. Along with traditional sources of financing, methods of attracting investments based on modern instruments - venture capital, agricultural bonds, leasing and cluster systems - are highlighted. The need to introduce foreign experience to increase investment activity in the agricultural sector of Uzbekistan is also substantiated.

Key words: leasing, financing, investment, innovative methods, venture capital, agribusiness, cluster.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-204-6/uzb-10>

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi global iqtisodiy muhitda agrosektorni samarali moliyalashtirish muammosi ko'plab davlatlarning kun tartibida turibdi. O'zbekistonda ham qishloq xo'jaligini diversifikatsiyalash, resurslardan oqilona foydalanish va yuqori samarali texnologiyalarni joriy etish uchun yetarli darajada investitsiya resurslarini jalb qilish zarurati ortib bormoqda. An'anaviy bank kreditlari ko'plab kichik va o'rta fermer xo'jaliklari uchun cheklovlariga ega bo'lganligi sababli, alternativ moliyalashtirish usullariga ehtiyoj kuchaymoqda. Ayniqsa, agrosanoat klasterlari asosida investitsiya loyihalarini amalga oshirish, agrar obligatsiyalar chiqarish, xususiy investorlar ishtirokida loyihalarni moliyalashtirish kabi yo'nalishlar bugungi kunda dolzarb hisoblanadi. Zamonaviy qishloq xo'jaligi moliyalashtirish usullari nafaqat katta miqdordagi kapitalni jalb qilishni o'z ichiga oladi, balki ekologik jihatdan barqaror texnologiyalarni va innovatsion yechimlarni joriy etishga ham imkoniyat yaratadi.

Masalan, mikrokreditlash, crowdfunding (jamoaviy moliyalashtirish), davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik (PPP), shuningdek, raqamli texnologiyalar va aqilli qishloq xo'jaligi

texnologiyalarining rivoji bugungi kunda qishloq xo'jaligi sektorini moliyalashtirishda yangi usullarni taqdim etmoqda. Ushbu zamonaviy usullar, kichik fermerlarni qo'llab-quvvatlash, ilg'or texnologiyalarni joriy etish, resurslarni samarali taqsimlash va ekologik xavf-xatarlarni kamaytirish kabi ko'plab ustuvor maqsadlarga xizmat qiladi.

Qishloq xo'jaligini moliyalashtirishning zamonaviy usullar

Moliyalashtirish usuli	Tavsifi
Mikrokreditlash	Kichik miqdordagi qarz mablag'lari orqali kichik fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash.
Crowdfunding (xalq mablag'larini yig'ish)	Crowdfunding (xalq mablag'larini yig'ish)
Fintech yechimlari	Raqamli platformalar orqali kreditlar, to'lovlar va boshqa moliyaviy xizmatlarni taqdim etish.
Agrotexnologik investitsiyalar	Aqlli qishloq xo'jaligi texnologiyalari, masalan, dronlar, sun'iy intellekt va IoT qurilmalarga sarmoya kiritish.
Green (yashil) moliyalashtirish	Ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun qishloq xo'jaligini rivojlantirishga qaratilgan mablag' jalb qilish.
Qishloq xo'jaligi obligatsiyalari	Xususiy yoki davlat obligatsiyalarini chiqarish orqali fermerlarga moliyaviy resurslarni jalb qilish.
Agrar sug'urta va sug'urta mahsulotlari	Hosil sug'urtasi, ob-havo sug'urtasi kabi maxsus sug'urta vositalari orqali risklarni boshqarish.

Bu zamonaviy usullar qishloq xo'jaligi sektorini barqaror rivojlantirish va samaradorlikni oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar va ekologik mas'uliyatga asoslangan yondashuvlar kelajakdagi global qishloq xo'jaligini moliyalashtirish jarayonida asosiy o'rin egallaydi.

Rivojlangan mamlakatlar qishloq xo'jaligini moliyalashtirishda innovatsion texnologiyalar va moliyaviy mexanizmlardan samarali foydalanmoqda. Ulardan ba'zi mamlakatlarning tajribasi va ulardagi zamonaviy usullarni ko'rishimiz mumkin:

Yaponiyada qishloq xo'jaligini moliyalashtirish bo'yicha qo'llanilayotgan zamonaviy usullar:

Agrofintech: Yaponiya sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalardan keng foydalanmoqda. Fermerlarga raqamli platformalar orqali kreditlar va texnologik xizmatlar taqdim etiladi.

Smart Farming (Aqlli qishloq xo'jaligi): Yapon fermerlari dronlar va avtomatlashtirilgan uskunalarni moliyalashtirish uchun zamonaviy lizing tizimidan foydalanadi.

Kooperativlar: Yaponiyada qishloq xo'jaligi kooperativlari fermerlarning resurslarni birgalikda ishlatishini ta'minlash uchun samarali moliyalashtirish imkoniyatlarini taqdim etadi.

AQShda qishloq xo'jaligini moliyalashtirish bo'yicha qo'llanilayotgan zamonaviy usullar:

Agrotexnologik investitsiyalar: AQSh fermerlari raqamli texnologiyalar, masalan, dronlar, IoT (Internet of Things), va sun'iy intellektga asoslangan tizimlar orqali hosildorlikni oshirish uchun innovatsion moliyalashtirishdan foydalanadi. Ushbu texnologiyalar ko'pincha xususiy venchur kapitali yoki davlat granti hisobiga moliyalashtiriladi.

Farm Credit System: AQShda «Farm Credit System» deb nomlangan maxsus moliyaviy tizim qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilariga uzoq muddatli kreditlar va investitsiya imkoniyatlarini taqdim etadi.

Sug'urta va risk boshqaruvi: AQShda qishloq xo'jaligi sug'urtasi yaxshi rivojlangan bo'lib, fermerlar hosil yo'qotishlari yoki narx o'zgarishlaridan himoyalaniş uchun sug'urta vositalaridan keng foydalanadi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi zamonaviy moliyalashtirish usullarining samaradorligini namoyon etadi. Ushbu usullar, xususan, ekologik barqarorlik, texnologik innovatsiyalar va moslashuvchan moliyalashtirish yondashuvlari orqali qishloq xo'jaligi sohasining rivojlanishini ta'minlaydi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Kamolov Sh.O'. «Qishloq xo'jaligini moliyalashtirishning innovation usullari» – Toshkent, 2021.
2. Scientific Journal of "International Finance & Accounting" Issue
3. To'xtasinov M.Yu. «Moliyalashtirish usullari va xalqaro iqtisodiy hamkorlik» – Toshkent, 2018.
4. Farm Credit System (AQSh): <https://www.farmcredit.com>
5. Food and Agriculture Organization (FAO) rasmiy sayti: <https://www.fao.org>

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2025-yil, 23-iyun

Mas’ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

**O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM
ISTIQBOLLARI. II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
materiallari.** – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 138 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz/uzbekistan-2030>

Konferensiya tashkilotchisi: Scienceproblems Team

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2025-yil, 23-iyun

ISBN 978-9910-09-204-6

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.